

Murodova Aziza
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistri

**“XONADA GULLARNI EKISH VA PARVARISHLASH” AMALIY MASHG‘ULOTIDA
BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA FIKRLASH KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH**

Annotatsiya: Maqolada “Xonada gullarni ekish va parvarishlash” amaliy mashg‘ulotini o‘tish davomida o‘quvchilarning tasavvurlari va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarni o‘rganilgan. O‘simliklarning inson hayoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ular haqida o‘quvchilarga chuqur bilim berishni taqozo qiladi. Bu esa ularning tashqi olam haqidagi tasavvurlarini rivojlashtirishga yordam beradi. Shu sababli xonada gullarni o‘stirish ham ularning kuchli emotsiya olib, taasurotlarining kuchayishiga yordam beradi. Natijada xonada o‘simliklarni o‘stirish amaliy mashg‘uloti, bu jarayonga bag‘ishlangan intellect xarita o‘quvchilarni ijod qilishga undaydi. Bu esa ularning ijodiy fikrlashlarining rivojlantirishining yaxshi omil bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: O‘simliklar, gular, ekish, parvarishlash, tasavvur, ijodiy fikrlash, intellect xarita, tuproq, sug‘orish, o‘g‘it, havo, zararkunanda, kaktus, aloe, atirgul, chang, namlik.

Uy o‘simliklari, xona o‘simliklari — uylarda va jamoat xonalarida o‘stiriladigan o‘simliklar. Tabiiy holda Yer sharining tropiklar va subtropik mintaqalarida o‘sadigan o‘simliklar uy sharoitida o‘stiriladi. Uy o‘simliklari 2 guruhga: chiroyli gullaydigan o‘simliklar va manzarali-bargli (barglari har xil ko‘rinishdagi) o‘simliklarga bo‘linadi. O‘zbekistonda aloe, amarillis, begoniya, gulisumbul, kaktus, uy limoni, atirgul, uzambar gunafshasi, xitoy atirguli, finik palmasi, fuksiya va boshqalar ko‘proq o‘stiriladi. Uy o‘simliklari kompostli, sof tuproq, chimli tuproq aralashmasi to‘ldirilgan yog‘och, plastmassa, shisha, sopol tuvak va boshqa moslamalarda deraza tokchasida yoki deraza yonida o‘stiriladi. Ularni sug‘orib turish, yoz oylarida mineral o‘g‘itlar eritmasi bilan (10 litr suvga superfosfat, amiakli selitra, kaliy o‘g‘iti 1, 2,5, 0,5 choy qoshiq nisbatida) oziqlantirish, barglarini yuvib turish zarur. Uy o‘simliklari xonaning yuqori haroratiga (20—25°) chidamli. Ularning yaxshi o‘sishi uchun havo namligi yuqori bo‘lishi kerak. Uy o‘simliklarining subtropik turlari (sambitgul va boshqalar) esa qishda harorat 10—12° da yaxshi usadi. Uy o‘simliklarining ba‘zi turlari (masalan, anjir, limon, mandarin, garmdori) mevasi uchun ham o‘stiriladi. Yaponiyada qadimdan xonalarda qarag‘ay, tilog‘och, eman, olxo‘ri, olcha kabi pakana daraxtlar o‘stiriladi. Ularning o‘sishini maxsus usullar bilan sekinlashtirish natijasida pakana o‘simliklar hosil bo‘lgan.

Uy o‘simliklari urug‘idan yoki qalamchasidan, tuganaklari, piyozi, ildiz bachkasidan ko‘paytiriladi. Asosiy zararkunandalari: oqqanotlar, yomg‘ir chuvalchangi, qizil kanacha; oranjereya tripsi, shira, oqqurt.

Kasalliklari: kul, xloroz va boshqalar.

Xona o‘simliklarining afzalliklari nimada?

Dam olishga yordam beradi. Afrika binafshasining siyohrang barglari adrenalini chiqarilishini rag‘batlantiradi. Natijada energiya darajasi oshadi va miyaga kislorod oqimi kuchayadi. Tanadagi bu jarayonlar odamga dam olishga yordam beradi.

Tabiiy namlagich. Boston qirquuloqlari namlikni transpiratsiya jarayon orqali chiqaradi, bunda suv barglar yuzasida bug‘lanadi.

Milliy Sog‘liqni saqlash instituti ma‘lumotlariga ko‘ra, aloe qadimgi Misrda “umrboqiy o‘simlik” sifatida tanilgan va yaralarni davolashda ishlatilgan. Hozirgi kunda ham kuyish jarohatida ushbu xona o‘simligining suvidan foydalaniladi.

Allergiya xavfini kamaytiradi. O‘rgimchaksimon o‘simlik allergiya rivojlanishini kamaytirishga yordam beradi va chang tufayli paydo bo‘ladigan tumovdan xalos qiladi. Uning barglari allergenlarni o‘zlashtirishga qodir va ikki kun ichida xonani 90 foiz toksinlardan tozalaydi.

Havoni tozalaydi. Olimlarining tadqiqotiga ko‘ra, ingliz pechagi eng yaxshi havo tozalash vositasi ekanligi ma‘lum bo‘ldi, chunki u formaldegidni mukammal darajada o‘zlashtiradi. Agar bunday o‘simlik uyda bo‘lsa, unda nafas olayotgan havo toza ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Diqqatni yaxshilaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar xonada o‘simliklar mavjud bo‘lganda 70 foiz ko‘proq e‘tiborli bo‘lishadi. Quyosh nurlari kam bo‘lgan ofis xonalarida bemalol o‘sadigan juda ko‘p o‘simlik navlari mavjud. Ammo bambuk ish joyiga kerakli energiya berishi mumkin bo‘lgan o‘simlik sifatida ajralib turadi.

Stress darajasini pasaytiradi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, gullaydigan xona o‘simliklari (masalan, anturium) stress darajasini kamaytirishga yordam beradi.

Ko‘z charchoqlarini kamaytiradi. Chirmashib o‘sadigan o‘simlik potos ko‘zdagi charchoqni bartaraf etishga qodir. Mutaxassislar fikricha, kompyuterda bir necha soat ishlagandan so‘ng, bu o‘simlikka qarashning o‘zi kifoya va ko‘z zo‘riqishlari sezilarli darajada kamayadi. Potos, shuningdek, glaukoma va katarakta rivojlanishining oldini ham oladi.

Gullarni o‘stirish uchun nimalar kerak?

Tuproq(qum) — litosfera yuza qavatlarining suv, havo va tirik organizmlar ta‘sirida tashkil topgan tabiiy tuzilma; Yer po‘stining yuza va unumdor qatlami. Tuproqning nuragan tog jinslaridan farq qiladigan eng muhim xususiyati — unumdorligidir. Tuproq hosil qiluvchi asosiy omillar: iqlim, tuproq ona jinsi, o‘simliklar va hayvonot olami, hududning relyefi va geologik yoshi hamda odamning xo‘jalik faoliyati.

O‘g‘it — tarkibida o‘simliklar uchun zarur oziq elementlar bo‘lgan yoki tuproqdagi oziq moddalarni harakatga keltiradigan organik yoki anorganik moddalar. O‘g‘it deganda o‘simlikning oziq elementlari bilan birga, tuproqqa solinganda oziq elementlarini ishga solishga yordam beradigan bakterial preparatlar, tuproq strukturasi, kimyoviy va biologik xususiyatlarini yaxshilaydigan pqpreatlar ham tushuniladi. Odam ularni qo‘llab o‘simliklar uchun ijobiy oziqlanish balansi yaratadi, tuproqdagi moddalar aylanishiga faol aralashadi. Kimyoviy tarkibiga qarab o‘g‘itlar organik, mineral va bakterial bo‘lishi mumkin. Organik o‘g‘itga go‘ng, torf, sharbat, har xil kompostshr, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, sanoat va shahar xo‘jaligi chiqindilari hamda ko‘kat o‘g‘itlar kiradi.

Sug‘orish – tuproqni manbalardan olingan suv bilan sun‘iy namlash. Sug‘orish tuproqning o‘simlik ildizi tarqalgan qismida eng qulay suv rejimini hosil qiladi. Bu esa o‘simliklarning tuproqdan oziq moddalar – mineral va organik o‘g‘itlarni o‘zlashtirishiga qulay sharoit yaratadi va qishloq xo‘jaligi. ekinlaridan yuqori hosil olishni ta‘minlaydi. Sug‘orish yer hosildorligini

sugʻorilmaydigan sharoitlarga qaraganda 8—10 marta oshiradi, intensiv dehqonchilikni joriy etish imkoniyatini beradi. Bu esa suv xoʻjaligi qurilishiga va yerlarni meliorativ oʻzlashtirishga sarflangan kapital mablagʻlarning tez (3—5 yil ichida) qoplanishini taʼminlaydi.

Oʻsimliklar ham har bir mavsumda alohida parvarishni talab etadi. Agar ularni toʻgʻri parvarish qilinmasa, chiroyli koʻrinishini yoʻqotishi va qurib qolishi mumkin. Lisa nashri qishda xona oʻsimliklarini qanday parvarish kerakligi haqida maʼlumot berdi.

Oʻsimliklarni koʻp sugʻormaslik kerak. Yaqinda oʻsimlik parvarish qilishni boshlagan insonlar qishda ularni qanday sugʻorish kerakligini bilmaydi. Sovuq havoda oʻsimliklarning oʻsish tezligi pasayadi, shuning uchun ularga kamroq namlik kerak. Oʻsimliklarni sugʻorish kerak, biroq oʻsimlikning pastki qismida turadigan idishda suv turmasligi oʻrinlidir. Qishda va yozda suvni xona haroratiga moslash kerak. Tuproqning quruqligini har doim ham koʻz bilan aniqlash mumkin emas, buning uchun siz yogʻoch tayoqdan foydalanishingiz mumkin. Agar tayoqcha uchiga yopishgan tuproq nam boʻlsa, bu sugʻorishga hali erta ekanligini anglatadi.

Oʻsimliklarni derazaga yaqinroq joyga joylashtiring. Yilning turli vaqtlarida quyosh nurlarining yerga tushish burchagi oʻzgaradi. Qishda oʻsimliklarga yorugʻlik yetishmasligi mumkin, shuning uchun ularni deraza tokchasiga qoʻygan maʼqul. Faqat derazadan shamol kirmasligi, oʻsimlikning novdasi va barglari sovuq oynaga tegmasligiga ishonch hosil qiling. Oʻsimliklarni janubiy yoki janubi-gʻarbiy yoʻnalishda qoʻygan maʼqul. Novdalarning toʻgʻri shakllantirish uchun idishlarni oyiga bir necha marta aylantiring.

Changni artib oling. Chang teshiklarni yopadi va oʻsimlikning nafas olishiga toʻsqinlik qiladi, shu bilan birga gaz almashinuvini buzadi. Hatto qishda ham har hafta oʻsimlikdagi changni nam mato bilan artib oling. Bu xona oʻsimliklari uchun qulay sharoit yaratadi.

Havoni namlang. Oʻsimliklar 40-50 foizdan yuqori namlik darajasini afzal koʻradi. Biroq isitish mavsumi boshlanishi bilan bu koʻrsatkich tez pasayib boradi. Doimiy purkagich (lekin bu hamma oʻsimliklarga ham yoqmaydi) yoki namlagich vaziyatni yaxshilashga yordam beradi, u avtomatik ravishda kerakli namlik darajasini saqlab turadi.

Haroratning keskin oʻzgarishiga yoʻl qoʻymang. Qishda koʻplab oʻsimliklar salqinlikka muhtoj, biroq haroratning keskin oʻzgarishi nafaqat barglarga, balki ildiz tizimiga ham yomon taʼsir qiladi. Agar xonani shamollatishga qaror qilsangiz, gullarni derazadan boshqa xonaga oʻtkazing.

Xonaki oʻsimliklarning bargi sargʻaymasligi uchun ularni qanday parvarish qilish kerak?

Ayniqsa, qish mavsumida uyda oʻstiriladigan gullar boʻlsa, ertami-kechmi ularning barglari sargʻayishi koʻp uchraydigan holat. Demak, parvarish borasida nimadir notoʻgʻri amalga oshirilayotgan boʻlishi mumkin. Buni quyidagicha aniqlasa boʻladi:

Juda koʻp yoki kam sugʻorish. Odatda tuproqning ustki qatlami tezroq quriydi. Natijada oʻsimliklar xuddi suvsiz qolgandek tuyiladi. Aslida esa bunday emas. Tuproq namligini toʻgʻri aniqlash uchun barmoqni tuvakka 2-3 santimetr chuqurroq kiritib koʻrish kerak.

Tuproq tekshirilgandan soʻng quruqlik aniqlansa, darhol bir stakan miqdorda suv quyish kerak. Shuningdek, oʻsimliklarni muntazam sugʻorishda ushbu tekshiruvni amalga oshirish zarur.

Agar tuproq, aksincha, juda nam boʻlsa, oʻsimliklarning ildizni tekshirish zarur. Sababi ular koʻp sugʻorish natijasida zararlanib, chirish alomatlari paydo boʻlgan boʻlishi mumkin. Bu kabi


vaziyatda o‘simlikni boshqa idishga ko‘chirib, uni so‘lib qolishdan asrash lozim. Shuningdek, sug‘orish borasida yuqoridagi ko‘rsatma tavsiya etiladi.

Zararkunandalarni tekshirish. Agar sug‘orish tartib bilan amalga oshirilayotgan bo‘lsa, demak, yaproqlar sarg‘ayishining sababi zararkunandalar bo‘lishi mumkin. Ulardan eng keng tarqalgani — oq qanotli chivin va o‘rgimchak kana. Ba‘zan ularni darhol aniqlash qiyin, shuning uchun yaproqlarni sinchkovlik bilan ko‘rib chiqish zarur.

Agar barglarda mayda teshik yoki oq nuqtalar, shuningdek, o‘rgimchak to‘riga o‘xshash to‘r paydo bo‘lgan bo‘lsa, demak zararkunandalar mavjud. Ular xona haroratida o‘zini juda yaxshi his etadi. Ularni bartaraf etish uchun o‘simlik bargi yaxshilab yuvilishi kerak. Buning uchun kir yuvish sovuni yoki idish yuvish vositasini ishlatish mumkin. Shundan so‘ng ularga akaritsid va insektoakaritsid guruhidan maxsus preparatlarni qo‘llash kerak. Agar uy sharoitida faqat tabiiy mahsulotdan foydalanish kerak bo‘lsa, unda “Nim” moyi yordam berishi mumkin.

O‘simliklarga quyosh nurining tushishi. Sarg‘aygan barglarning yana bir sababi – quyosh nurlarining yetishmasligidir. Albatta, bu kuz va qish mavsumida ko‘proq kuzatiladi. Barcha derazalar quyoshga teskari tomonda bo‘lsa, o‘simliklar zarar ko‘radi. Shuning uchun o‘simliklarni deraza yoniga qo‘yish yoki sun‘iy yoritishni tashkil qilish zarur. Yorug‘likning yetishmasligi birinchi navbatda o‘simlikning pastki qismida aks etadi. Ular sarg‘ayib, so‘lishni boshlaydi.

Yelvizakdan saqlash. Xonaki o‘simliklarning aksariyati tabiiy tropik mamlakatlarga xos bo‘lib, ular sovuq va yelvizakka chidamli emas. Shuning uchun ham o‘simlik biroz ochiq deraza qarshisida turib, sarg‘aygan bo‘lsa, hayron bo‘lish kerak emas. Shuningdek, o‘simlik salqin xonada bo‘lsa, uni sug‘orishni kamaytirish zarur. Aytgancha, o‘simliklar nafaqat sovuq mavsumda, balki doimiy ishlaydigan konditsioner ostida ham muzlashi mumkin. Azotli o‘g‘it yetishmasligi tufayli eski barglar sarg‘ayadi, yangilari esa yashil rangda turaveradi. Shuning uchun azotli o‘g‘itni me‘yorida qo‘shishni unutmaslik zarur. Ortiqchasi yana ularga zarar berishi mumkin.



“Xonada o‘simliklarni o‘stirish” intellekt xaritasi

Intellekt xarita yordamida o‘quvchilarning tasavvurlari va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

1. Xonadagi o‘simliklarning foydali tomonlari? 2. Uyingizda qanday xona o‘simliklari bor? 3. Aloeni taniysizmi? Uning foydali tomonlari? 4. Kaktusni ko‘rganmisiz? Uning rasmini chizib bering. 5. Xitoy atirgulining rangi qanday? 6. Xona gullarni ko‘rganingizda nimalarni his qilaysiz? 7. Xona gullarining ko‘z uchun foydasi bormi? Ularni aytib bering. 8. Xonada gular o‘stirish uchun nimalar kerak? 9. Ular qanday qilib sug‘oriladi? O‘zingiz sug‘organ usullaringizni ayting. 10. Ular yaxshi o‘shishi uchun nima qilmoq kerak? 11. Xona gullariga ham quyosh kerakmi? 12. Xona gullarining barglari nega sarg‘ayadi? 13. Sinf xonasidagi gullarning nomlarini ayting va ularga ta‘rif bering. 14. O‘z xonagizda qanday qilib gul ekaningiz haqida gapirib bering. 15. Intellekt xaritadagi jarayonlar orasidagi bog‘lanishlarni tushuntiring. 16. Intellekt xaritadagi gullarning o‘xshashlik tomonlari va farqlarini ayting. 17. Xona gullari haqida hikoya yoki ertak ayting. 18. Xona gullarining rasmlarini chizing.

Xulosa

- Birinchi va ikkinchi sinf o‘quvchilarida vizual va vizual timsolli (rolli) fikrlash ustun bo‘lganligidan ularning tasavvurlari va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘simliklarning tuzilishini o‘rganish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda unumli foydalanish mumkin.

- O‘simliklarni o‘stirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot bolalarda mehnat qilish ko‘nikmalarini, tabiatga qiziqishlarini orttirib qolmasdan ularning ma‘lumotlarini ehtiros bilan idrok qilishlari va tasavvurlarining yaxshi rivojlanishiga yordam beradi.
- “O‘simliklarning tuzilishi” intellekt xaritasi o‘quvchilarni o‘simliklarning tuzilishi haqidagi ma‘lumotlarni yaxlit idrok qilishlari va o‘simliklarning rivojlanishi haqida tasavvur qilishlarini ta‘minlaydi.
- O‘quvchilarning tasavvurlari va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning sermahsul vositasi “O‘simliklarning tuzilishi” intellekt xarita va undan foydalanish savollari keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Y.V.Malikova. Tabiiy fanlar 1-sinf 1-qism. Novda nashriyoti, Toshkent – 2023.
2. Atrofimizdagi olam 1-sinf.
3. Atrofimizdagi olam 2-sinf.
- 4.
5. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. 1997 г.
6. G‘aniyev A.G. 10-11-sinf va akademik litsey o‘quvchilarida “to‘la fikrlash” ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini rivojlantirish. Monografiya. Qarshi. “Fan va ta‘lim” nashriyoti. 2021.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.